

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИКНИНГ
ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ: АДАБИЙ ЖАРАЁН, ҚИЁСИЙ
АДАБИЁТШУНОСЛИК, УСЛУБШУНОСЛИК ВА
ТИЛШУНОСЛИК МАСАЛАЛАРИ**

**мавзусидаги республика илмий-амалий
конференцияси материаллари**

ТЎПЛАМИ

3-4 май, 2019 йил

БУХОРО – 2019

2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990.
3. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – T.: Mehnat, –2000.

KORPUS LINGVISTIKASI ALOHIDA TADQIQOT SOHASI SIFATIDA

O.Abdullayeva, ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada korpus lingvistikasining tilshunoslikda tutgan o'рни, sohaning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan, shuningdek, tabiiy tilni qayta ishlash jarayoni, lingvistik analiz jarayonida korpus lingvistikasining qo'llanilishi, korpusning ishlash prinsipi va dasturiy ta'minoti, korpus lingvistikasini davrlashtirish xususida ma'lumot berilgan. **Kalit**

so'zlar: korpus lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash, korpus annotatsiyasi, metadata, analitik vositalar, Corpusbench, LEXA, MicroConcord, korpus dasturlari.

Korpus lingvistikasi nima? Bu albatta lingvistikada o'qigan mavzularimizdan tamoman farq qiladi, xuddi tilshunoslikning ayrim aspektini o'rganish bevosita o'rganish emasdek. To'g'rirog'i bu jarayonlar metodlar va tilni o'rganish maydoni bilan farqlanadi. Korpus lingvistikasida tilni o'rganishga bo'lgan yondashuvimizni yangi metodlar va tamoyillar asosida qayta yo'naltirishimiz zarur bo'ladi. Ba'zi umumiy fikrlar "korpus lingvistikasi" deb ataladigan sohani xarakterlash mumkin bo'lsa-da, lekin korpus tilshunosligining ko'p tarkibli soha ekanligini anglash juda muhimdir. Bu soha tilni tekshiruvchi metod va jarayonlarning birikuvidan tashkil topgan juda katta va yaxlit bo'lmagan yo'nalishdir¹.

Korpus lingvistikasi tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, korpus deb ataluvchi tabiiy matnlarning katta yig'indisidan foydalanuvchi sohadir. Bu an'anaviy yondashuvga qo'shimcha yangi yondashuvdir. Korpus lingvistikasi komyuter yordamidagi lingvistik tahlil jarayonida o'zining haqiqiy imkoniyatlarini namoyon qiladi. Uning birlamchi maqsadi til faktlarini kashf qilishdir.

Korpus lingvistikasining xususiyatlari:

¹ Tony McEnery, Andrew Hardie. Corpus linguistics. Cambridge University Press, 2012

- tabiiy matnlardan foydalanishning amaldagi qoliplarini empirik tahlil qiladi;
- tahlil uchun asos sifatida korpusdan foydalanadi;
- tahlil uchun kompyuterlardan foydalanadi. U ham avtomatik ham interfaol usullardan foydalanadi;
- u miqdoriy va sifatli analitik metodlarga bog‘liq.

Korpus annotatsiyasi korpus tilshunosligining bir qismidir. Bu lingvistik ma’lumotlar bilan korpus matnlarini izohlaydi. Mashina tarjimai uchun asoslangan korpuslarda annotatsiyalangan korpus natijalari g‘oyatda foydali hisoblanadi. Inson qo‘l mehnati orqali izohlash ko‘p vaqt olinishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham korpus annotatsiyasi odatda avtomatik yoki yarim avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun lemmatizerlar va taggerlar kabi NLP (tabiiy tilni qayta ishlash) dasturlari ishlatiladi. Shuningdek, bu vositalar aniq emas, korpusning to‘g‘ri bo‘lishi uchun qo‘lda tuzatish talab qilinadi.

Korpus lingvistikasining afzalliklari: lingvistik tahlillar izchil va ishonchli. Chunki kompyuterlardan foydalanilganda tilning foydalanishning murakkab modellarini aniqlash va tahlil qilish mumkin. Kompyuterlar tilshunoslarga tabiiy tilning juda katta ma’lumotlar bazasini saqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Kompyuterlar va tilshunoslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ikki tomonlama afzalliklarni vujudga keltiradi: kompyuterlar ma’lumotlarni boshqarishi jarayonida tilshunoslar lingvistik muhokamalarni qiyinlashtirishi mumkin.

Korpus lingvistikasining qo‘llanilishi

Korpus tilshunosligidan tilshunoslik sohasi bo‘yicha bir qator mavzularni o‘rganishda foydalaniladi. Korpus asosidagi metodlar lingvistik strukturaning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadigan leksikografiya va grammatika sohalarini o‘rganishga imkon beradi. Lug‘at tuzuvchilar korpus metodlaridan eng keng tarqalgan qo‘llanishlarni aniqlash, bir – biriga aloqador so‘zlarning chastotasi, so‘zlar va ma’nolarining eng ko‘p uchraydigan matnlari haqida ma’lumot olish uchun foydalanadilar. Shuningdek korpusga asoslangan metodlar sotsiolingvistlarga dialektni aniqlash va ro‘yxatga olish tartibini o‘rganishga imkon beradi. Korpus lingvistikasidan birorta tilni o‘zlashtirishda ham foydalanish mumkin. Til o‘rgatishning bu usulida ta’lim ko‘p sonli o‘rganuvchilardan iborat bo‘lishi va shuningdek barchasini umumiy misollar orqali imtihon qilishi mumkin. Tilshunoslik ta’limida sinfxonalar uchun samarali materiallar va mashg‘ulotlarni loyihalashtirishda ham korpus asosidagi tadqiqotlar qo‘llanilishi mumkin.

Analitik vositalar:

Corpusbench: soʻzni hisoblash uchun ishlatiladi, konkordansing, Grammatik va morfologik tahlillarda ishlatiladi.

MicroConcord: u soʻzlarni hisoblash, konkordansing, sintaktik va morfologik tahlil uchun ishlatiladi¹.

Korpus lingvistikasida korpuslar foydalanuvchiga tez va ishonchli qidirishga imkon beradigan dasturlarni qoʻllashda oʻzgarmasdir. Bu dasturlarning baʼzilari, chunonchi, konkordanserlar foydalanuvchiga matndan soʻzlarni qidirishga imkon beradi. Shunga oʻxshash dasturlarning koʻpchiligi yana matnlardagi maʼlumotlar chastotasini yaratishga imkon beradi. Masalan, korpusda paydo boʻladigan barcha soʻzlarning roʻyxati va har bir soʻzning maxsus oʻsha korpusda necha marta uchrashini koʻrsatadigan soʻzlarning chastotali roʻyxatini yaratadi. Konkordanser va chastota faktlari tahlilning 2 muhim tomoni hisoblanadi, yaʼni sifat va miqdoriy jihati sifatida korpus lingvistikasining muhim qismlaridir.

Baʼzi olimlar korpus lingvistikasini mustaqil sohami degan savolni ham oʻrtaga tashlashadi. Korpus tilshunosligi “haqiqiy hayot” tilidan keng foydalanishga asoslangan yirik maʼlumotlar toʻplami - korpusni oʻrganishdir. Korpus esa lingvistik tadqiqotlar uchun yaratilgan kompyuterlashtirilgan maʼlumotlar bazasidir. Korpus tilshunosligi baʼzi tadqiqotchilar tomonidan tadqiqot vositasi yoki metodikasi, boshqalar tomonidan esa oʻz navbatida fan sohasi yoki nazariyasi sifatida koʻrib chiqilgan. Korpus tilshunosligida qoʻllaniladigan usullar 1960-yillarning boshlarida qabul qilingan boʻlsa-da, korpus tilshunosligi 1980-yillarga qadar paydo boʻlmadi. Ammo bu davrdan boshlab koʻpchilik tillarning korpusi yaratilib, lingvistik analiz tahlillari amalga oshirildi. Korpus tilshunosligi koʻplab nazariy yondashuv olimlari tomonidan ishlab chiqilgan usullarni oʻz ichiga oluvchi alohida bir metodologiyadir. Korpus lingvistikasi metodologik jihatdan mukammallashib, korpus tilshunosligiga murojaat qilinishi yil sayin oʻsib bormoqda. Miqdoriy usullar korpusga asoslangan tadqiqotlar uchun muhim hisoblanadi. Misol uchun, tilda katta va ulkan soʻzlaridan foydalanish diagrammasini aniqlamoqchi boʻlsangiz, har bir soʻzning korpusda necha marta uchrashini, bu sifatlarning har biri bilan qancha turli xil soʻzlarning birgalikda kelishi va har biri qanchalik keng tarqalganligini bilishingiz kerak boʻladi. Bularning barchasi miqdoriy oʻlchovlaridir².

¹ Natural language processing. <https://www.language.worldofcomputing.net>

² R.Nordquist. Definition and examples of corpus linguistics., 03.05.2019. <https://www.thoughtCo.com>.

Korpus lingvistikasi haqida gapirilganda komyuter lingvistikasining bir yo‘nalishi yoki undan o‘sib chiqqan mustaqil soha kabi fikrlarga duch kelamiz. Korpus tilshunosligi “haqiqiy dunyo” matnlarining korpusida ifodalangan tilni o‘rganishdir, Kompyuter lingvistikasi esa tabiiy tilni hisoblash nuqtai nazaridan qoida asosida modellashtirish bilan bog‘liq. Korpus lingvistikasini o‘rganishning o‘ziga xos bir-biridan ajralib turadigan xarakterli xususiyatlari mavjud.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Korpus lingvistikasining rivojlanishi tilning qo‘llanilishi va uning ma‘lumotlariga asoslangan yangi nazariyalarning paydo bo‘lishiga va eng muhimi lingvistik tadqiqotlarning osonlashuviga sabab bo‘ladi.

“SAG NICHT!” - SPIELNDE LERNEN IM DAF-UNTERRICHT

Karimova Dilafruz,

BSU, Lehrstuhl für deutsche und französische Sprachen

Lisa Felden,

BRD, Westfälische Wilhelms-Universität Münster

Die wissenschaftliche Auseinandersetzung mit dem Thema Spiel und seiner Bedeutung für den pädagogischen Bereich und somit für die Entwicklung und die Bildung des Kindes reicht weit in die Vergangenheit zurück. Schon in der Zeit der Antike wurde auf die pädagogische Relevanz des Spiels hingewiesen, wofür die zahlreichen Schriften von Platon, Cicero und Aristoteles Beweise liefern. Das Spiel wird dort nicht nur als ein Teil der gesellschaftlichen Kultur und Tradition verstanden, sondern samt der Bildung „zu den erstrebenswerten Zielen des erfüllten Lebens“ zugerechnet und als eine unabdingbare Komponente der kindlichen Sozialisation dargestellt. Deshalb wurde das Spiel schon damals in den Unterricht einbezogen, auch wenn es sich dabei meistens um den Sportunterricht, und somit um die körperliche Entwicklung handelte. Dennoch ist es gerechtfertigt anzunehmen, dass das Spiel gerade zu jener Zeit seinen Ursprung als Lehrmittel gefunden hat. Das didaktische Spiel ist in der Fachliteratur unter verschiedenen Namen zu finden, von denen die häufigsten zum Beispiel: Das Unterrichtsspiel, die spielerische Aktivität und das Lernspiel sind. Gewisse Meinungsverschiedenheiten betreffen dabei den Begriff Lernspiel, da dieses einerseits dem didaktischen Spiel gleichgestellt und andererseits als dessen Unterkategorie verstanden wird. Das Letztere lässt sich bei Kluge und Kube vorfinden, was bedeutet, dass sie das Lernspiel dem Unterrichtsspiel unterordnen.

Obwohl das eigentliche Spiel von der Mehrheit der Spielforscher als zweckfrei definiert wird, geben jedoch auch viele zu, dass sich bei Spielen dennoch bestimmte Ziele und Zwecke ergeben. Darüber hinaus kann der Fremdzweck auf das Spiel keine destruktive Auswirkung ausüben. Steinhilber sieht jedoch das Problem woanders, als in der Zweckgebundenheit des didaktischen Spiels.

Sprechspiele im DaF-Unterricht

Spiele sind ein wichtiger Teil jeder Kultur und jeder Gesellschaft. Jeden

Abdimuratova Maftuna. INGLIZ VA O'ZBEK ROMANCHLIGIDA O'SMIRLAR MUAMMOSI..... 159

II ШЎБА. БАДИЙ ТАРЖИМАНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА ЧОҒИШТИРМА ТИЛШУНОСЛИК МАСАЛАЛАРИ. МУАЛЛИФ ВА МАТН УСЛУБИ. БАДИЙ АСАРЛАРНИНГ ТИЛ ВА УСЛУБ ХУСУСИЯТЛАРИ 162

Маматов А.Э. АССОНАНСНЫЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ РЕЧЕНИЯ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ..... 162

Ж.А. Якубов. НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ГРАММАТИЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ ПРИ ПЕРЕВОДЕ С ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА НА РУССКИЙ..... 165

Нишонов П.П. ЮРИДИК ТЕРМИНЛАР ЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚОТ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА 167

А.А.Ҳайдаров. БАДИЙ УСЛУБНИНГ ФОНЕТИК ВОСИТАЛАРИ 172

.М.Жўраева. ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ЭРТАКЛАРИДА МОТИВЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАҲЛИЛИ..... 173

N.B.Kuldashova. LE SPORT ET LA TERMINOLOGIE DU SPORT..... 177

Отамуродова Д.Р. LES PARTICULARITES D'UTILISATION DES EURHEMISMES DANS LA LANGUE FRANÇAISE 180

Касимова Р.Р., Зиядуллаева А.А. ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА КУЛЬТУРОЛОГИЯДА ЛАКУНАЛАР 182

Менглиев Бахтиёр, Аҳмедова Меҳринигор. ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА “МАЪНАВИЯТ” АТАМАЛАРИНИНГ БЕРИЛИШИ ВА ТАРЖИМАДАГИ НОМУТАНОСИБЛИКЛАР..... 186

Расулов Зубайдулло, Арзиева Муаттархон. К ВОПРОСУ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИМ ПРИНЦИПАМ АНАЛИЗА СТРОЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СИНХРОННОГО ПЕРЕВОДА 189

Шахло Хамроева, Лобар Бозорова. КОРПУСНИ ЛОЙИҲАЛАШ ВА ТУЗИШ БОСҚИЧНИНГ ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНИ..... 194

Раджабова Маржона. МИЛЛИЙ ХУСУСИЯТГА ЭГА ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР ТАРЖИМАСИ..... 197

Касимова Р.Р., Зиядуллаева А.А. ЛАКУНАЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ..... 199

Ahmedova M.B., Sayliyeva G.A. MAQOLLARNING XALQ OG'ZAKI IJODINING BOSHQA JANRLARIGA NISBATAN O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI 201

Abdullayeva O.KORPUS LINGVISTIKASI ALOHIDA TADQIQOT SOHASI SIFATIDA.....203

Karimova Dilafuz. “SAG NICHT!” - SPIELEND LERNEN IM DAF-UNTERRICHT 203

Barotova Nargiza, Ahmedova M.B. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “MA'NAVIYAT” MILLIY AT NG TARJIMA MUAMMOLARI 210